Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 413-sahifa.
2026-yil, oktabr.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119

TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148
RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247

MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar).....322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики.....338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish.....347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari.....358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida).....365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari.....373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards.....381

SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar.....389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari.....395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash yo'llari.....401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo'yicha statistik tahlili.....407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlari (Xorazm viloyati misolida).....413

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

MINTAQADA TADBIRKORLIK SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Urganch RANCH texnologiya universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi v.b. dotsenti, PhD
ORCID: 0009-0000-0695-1702

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari Xorazm viloyati misolida o‘rganilgan. Hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mavjud tabiiy, mehnat, moliyaviy va ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda rasmiy statistik ma’lumotlarni taqqoslash, guruhlash, tizimli tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Xorazm viloyatining yalpi hududiy mahsuloti, iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibi, kichik tadbirkorlik subyektlari soni hamda 2025-yilda amalga oshirilgan tadbirkorlik loyihalari bo‘yicha ma’lumotlar jadvallar va diagrammalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning hududiy modeli taklif etilib, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, turizm, raqamli xizmatlar va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, tadbirkorlik salohiyati, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, bandlik, investitsiya, raqobatbardoshlik, iqtisodiy diversifikatsiya.

Аннотация. В данной статье на примере Хорезмской области изучены теоретические и практические аспекты эффективного использования предпринимательского потенциала в устойчивом развитии региональной экономики. Особое внимание уделяется развитию малого бизнеса и частного предпринимательства в регионе, рациональному использованию имеющихся природных, трудовых, финансовых и производственных ресурсов, созданию новых рабочих мест и повышению конкурентоспособности местной продукции. В исследовании использовались методы сравнения, группировки, системного анализа и обобщения официальных статистических данных. На основе таблиц и диаграмм проанализированы данные о валовом региональном продукте Хорезмской области, структуре отраслей экономики, количестве субъектов малого предпринимательства и реализованных предпринимательских проектах в 2025 году. По итогам исследования предложена региональная модель эффективного использования предпринимательского потенциала, разработаны практические рекомендации по развитию промышленной кооперации, глубокой переработки сельскохозяйственной продукции, туризма, цифровых услуг и предпринимательской инфраструктуры.
Ключевые слова: региональная экономика, предпринимательский потенциал, малый бизнес, частное предпринимательство, устойчивое развитие, занятость, инвестиции, конкурентоспособность, диверсификация экономики.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of effectively utilizing entrepreneurial potential in the sustainable development of the regional economy using the Khorezm region as an example. Particular attention is paid to the development of small business and private entrepreneurship in the region, the rational use of available natural, labor, financial, and production resources, the creation of new jobs, and increasing the competitiveness of local products. The study utilized methods of comparison, grouping, systematic analysis, and generalization of official statistical data. Data on the gross regional product of the Khorezm region, the structure of economic sectors, the number of small business entities, and business projects implemented in 2025 were analyzed based on tables and diagrams. As a result of the study, a regional model for the effective use of entrepreneurial potential was proposed, and practical recommendations were developed for the development of industrial cooperation, deep processing of agricultural products, tourism, digital services, and entrepreneurial infrastructure.
Keywords: regional economy, entrepreneurial potential, small business, private entrepreneurship, sustainable development, employment, investment, competitiveness, economic diversification.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida mintaqalarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, aholi bandligini oshirish va turmush darajasini yaxshilashda tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadbirkorlik nafaqat yangi korxonalarni tashkil etish, balki mavjud iqtisodiy resurslarni samarali birlashtirish, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish, mahalliy bozorlarni rivojlantirish va hududning raqobat ustunliklarini yuzaga chiqarish vositasi hisoblanadi.

Mintaqaning tadbirkorlik salohiyati uning tabiiy resurslari, mehnat bozori, ishlab chiqarish tajribasi, moliyaviy imkoniyatlari, transport va logistika infratuzilmasi, ilmiy-ta’limiy muhiti hamda tadbirkorlik tashabbuslari bilan belgilanadi. Ushbu omillarning o‘zaro uyg‘unligi hududda iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, yangi qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi va mahalliy iqtisodiyotning tashqi ta’sirlarga chidamliligini oshiradi.

Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, to‘qimachilik, hunarmandchilik, savdo, xizmat ko‘rsatish va turizmni rivojlantirish uchun muayyan imkoniyatlarga ega. Xususan, tarixiy-madaniy meros, Urganch va Xiva shaharlarining turistik jozibadorligi, qishloq xo‘jaligi xomashyosi hamda mehnat resurslari tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-iyul holatida Xorazm viloyatida fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz 22 709 ta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyat ko‘rsatgan. Bu ko‘rsatkich hududda xususiy tashabbus va kichik biznes uchun shakllangan iqtisodiy muhitni tavsiflaydi. Shu bilan birga, tadbirkorlik salohiyatining mavjudligi o‘z-o‘zidan yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlamaydi. Buning uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, malakali kadrlar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish va mahsulotlarni sotish bozorlarini diversifikatsiya qilish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlik salohiyatini o‘rganishda iqtisodiy resurslar, innovatsiyalar, inson kapitali va hududiy raqobatbardoshlik o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim nazariy ahamiyatga ega. J. Shumpeterning innovatsion rivojlanish haqidagi qarashlarida tadbirkor iqtisodiy o‘zgarishlarning faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Yangi mahsulotlar, ishlab chiqarish usullari va bozorlarni o‘zlashtirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risidagi qonunchilik, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda hududiy rivojlanish dasturlarida o‘z aksini topgan.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatida tadbirkorlik salohiyatidan foydalanish darajasini baholashda, avvalo, hudud iqtisodiyotining umumiy hajmi va uning tarmoqlar bo'yicha tarkibini o'rganish muhimdir.

Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Xorazm viloyatining yalpi hududiy mahsuloti 51 261,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu 2023-yilga nisbatan qariyb 17,4 foizga ko'pdir. Mazkur nominal o'sish iqtisodiy faollikning kengayganini ko'rsatadi, biroq uni real iqtisodiy o'sish bilan aynan tenglashtirish mumkin emas. Rasmiy ma'lumotlarda 2024-yil uchun real o'sish sur'ati 6,4 foiz sifatida qayd etilgan.


1-jadval

Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsulotining dinamikasi

Yil	YAHM, mlrd so'm	Oldingi yilga nisbatan nominal o'zgarish
2022	37 474,3	15,7 %
2023	43 666,7	16,5 %
2024	51 261,0	17,4 %

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Jadvaldan ko'rinadiki, 2022–2024-yillarda viloyat yalpi hududiy mahsuloti nominal qiymatda 13 786,7 mlrd so'mga oshgan. Bu davrda iqtisodiy faoliyat hajmining kengayishi tadbirkorlik subyektlari uchun yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini yuzaga keltirgan.



Manba: Milliy statistika qo'mitasining 2024-yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-rasm. Xorazm viloyati YAHM hajmining o'zgarishi

Tadbirkorlik salohiyatidan foydalanishda iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish va xizmatlar sohasi hududiy mahsulot shakllanishining asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

2-jadval


Xorazm viloyati YAHM tarkibida asosiy tarmoqlarning ulushi, 2024-yil

Iqtisodiyot tarmog‘i	Hajmi, mlrd so‘m	YAHM tarkibidagi ulushi
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	17 538,7	34,8 %
Sanoat	8 061,0	16,0 %
Qurilish	4 470,1	8,9 %
Xizmatlar sohasi	20 261,7	40,3 %
Mahsulotlarga sof soliqlar	929,5	—
Jami YAHM	**51 261,0**	**100 % ga yaqin**

Manba: www.Xorazmstat.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadvalda xizmatlar sohasi 40,3 foizlik ulush bilan yetakchilik qilayotgani, qishloq xo‘jaligi esa 34,8 foizni tashkil etayotgani ko‘rinadi. Ushbu holat viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirishning ikkita muhim yo‘nalishini belgilaydi: birinchisi, xizmatlar bozorini kengaytirish; ikkinchisi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va ularning qo‘shilgan qiymatini oshirish.

Diagramma xizmatlar sohasi va qishloq xo‘jaligi hudud iqtisodiyotining asosiy tayanchlari ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli tadbirkorlik loyihalarini rejalashtirishda ushbu sohalardagi mavjud imkoniyatlarni chuqur o‘rganish, ular o‘rtasida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish aloqalarini mustahkamlash maqsadga muvofiq.



Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-rasm. Xorazm viloyati iqtisodiyotining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi

Kichik biznes mintaqaviy iqtisodiyotning moslashuvchanligini oshiruvchi, aholi bandligini ta’minlovchi va mahalliy bozorlarni rivojlantiruvchi muhim omildir. Kichik korxonalar yirik investitsiyalar talab qilmaydigan yo‘nalishlarda yangi mahsulot va xizmatlarni taklif etishi, bozor talabidagi o‘zgarishlarga tez moslashishi bilan ajralib turadi.

Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 1-iyul holatiga oid ma’lumotlariga ko‘ra, Xorazm viloyatida fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz 22 709 ta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyat ko‘rsatgan.

3-jadval

Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Ko‘rsatkich	Qiymat
Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari	22 709 ta
Ma’lumot sanasi	2025-yil 1-iyul
Hisobga olinmagan toifalar	Fermer va dehqon xo‘jaliklari

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 15-iyuldagi hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik statistikasi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Mazkur ko‘rsatkich viloyatda tadbirkorlik faoliyatining sezilarli tashkiliy bazasi shakllanganini anglatadi. Biroq tadbirkorlik salohiyatini faqat korxonalar soni bilan baholash yetarli emas. Korxonalarning faoliyat davomiyligi, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish hajmi, eksport imkoniyatlari, innovatsion faolligi va yaratilayotgan ish o‘rinlari ham muhim mezonlardir.

Shu jihatdan, kelgusidagi hududiy dasturlarda yangi korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bir qatorda ularning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash, mahsulot sotish bozorlarini kengaytirish va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ustuvorlik berilishi lozim.

Xorazm viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, yangi mikroloyihalarni amalga oshirish, sanoat va xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish orqali olib borilmoqda.

Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil yakunlari bo‘yicha hisobotida keltirilishicha, 2025-yilda kichik va o‘rta biznesga jami 6,8 trln so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan, shundan 2,1 trln so‘mi dasturlar doirasidagi kreditlarni tashkil etgan. Yil davomida 6 900 ta kichik biznes subyekti va 6 800 ta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti tashkil etilgan. Shuningdek, 157 ming nafar fuqaro o‘zini o‘zi band qilish orqali tadbirkorlikka jalb etilgan.

4-jadval

Xorazm viloyatida 2025-yilda tadbirkorlikni rivojlantirish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2025-yil natijasi
Kichik va o‘rta biznesga yo‘naltirilgan mablag‘lar	6,8 trln so‘m
Dasturlar doirasida ajratilgan kreditlar	2,1 trln so‘m
Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari	6 900 ta
Yangi tashkil etilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar	6 800 ta
O‘zini o‘zi band qilish orqali tadbirkorlikka jalb etilganlar	157 000 nafar
Mahallalarda amalga oshirilgan mikroloyihalar	21 600 ta
Mikroloyihalar orqali bandligi ta’minlangan aholi	43 000 nafarga yaqin
“Zarbdor tajribasi” doirasidagi drayver loyihalar	68 ta

Manba: Xorazm viloyati hokimining 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2026-yilga mo‘ljallangan vazifalar yuzasidan hisoboti.


Keltirilgan ma’lumotlar hududda tadbirkorlikni moliyalashtirish va aholi bandligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ajratilgan mablag‘larning samaradorligini baholash uchun kreditlardan foydalanish natijasida yaratilgan barqaror ish o‘rinlari, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, soliq tushumlari va loyihalarning faoliyat davomiyligini muntazam o‘rganish zarur.

2025-yilda “Zarbdor tajribasi” doirasida shakllantirilgan 68 ta drayver loyihaning 21 tasi sanoat, 38 tasi xizmat ko‘rsatish va 9 tasi qishloq xo‘jaligi yo‘nalishiga tegishli bo‘lgan. Bu tarkib xizmat ko‘rsatish sohasining tadbirkorlikni rivojlantirishdagi muhim o‘rnini yana bir bor ko‘rsatadi.

Xizmat ko‘rsatish 38 ta | ■■■

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

ulanish imkoniyatlari, tadbirkorlik faoliyati bosqichida korxonalar barqarorligi va mehnat unumdorligi, natijalarni baholash bosqichida esa yaratilgan ish o‘rinlari, qo‘shilgan qiymat va eksport hajmi hisobga olinishi mumkin.



Manba: muallif ishlanmasi.

4-rasm. Tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanish modeli

XULOSA

Tadqiqot natijalari mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanish hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Xorazm viloyatining 2024-yil yakunlari bo‘yicha yalpi hududiy mahsuloti 51 261,0 mlrd so‘mni tashkil etgani, iqtisodiyotda xizmatlar va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining salmoqli o‘ringa egaligi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim iqtisodiy asos mavjudligini tasdiqlaydi.

2025-yilda kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish, yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va aholi bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Biroq uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash uchun tadbirkorlik subyektlari sonini ko‘paytirish bilan birga, ularning faoliyat barqarorligi, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga ham e’tibor qaratish lozim.

Umuman olganda, Xorazm viloyatida tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, mahalliy resurslarni chuqur qayta ishlash, xizmatlar bozorini kengaytirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Buning uchun hududiy rivojlanish siyosatini tadbirkorlarning real

ehtiyojlari, iqtisodiy ixtisoslashuv va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2012-yil 2-may, O‘RQ-328.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Xorazm viloyatining yalpi hududiy mahsuloti, 2024-yil yakunlari. Rasmiy statistik ma’lumotlar. https://stat.uz/
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Qaysi hududda kichik tadbirkorlik subyektlari ko‘proq faoliyat yuritmoqda? 2025-yil 15-iyul. https://stat.uz/
5. Xorazm viloyati hokimligi. Viloyat hokimi Jo‘rabek Raximovning 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2026-yilga mo‘ljallangan vazifalar yuzasidan hisoboti. https://gov.uz/oz/xorazm
6. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy